

**AMALIYOTCHI PSIXOLOG SHAXS VA MUTAXASSIS SIFATIDA**

***Otajanova Rahima Kadambayevna***

*Xorazm viloyati Xiva tumani 5-umumiy o'rta ta'lim maktabining  
amaliyotchi psixologi*

***Masharipova Umida Masharipovna***

*Xorazm viloyati Xiva tumani 12-umumiy o'rta ta'lim maktabining  
amaliyotchi psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada amaliyotchi psixologlarning shaxs sifatida egallashi lozim bo'lgan xususiyatlari va muataxassis sifatida jamiyat hayotidagi o'rni muhokama qilingan. Shuningdek, amaliyotchi psixologlarning axloqiy va kasbiy tamoyillari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** psixolog, amaliyot, jamiyat, kasb, professional, etika, estetika, psixologik xizmat, korreksiya.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются особенности практикующих психологов как личностей и их роль как специалистов в обществе. Также выделены этические и профессиональные принципы работы практикующих психологов.

**Ключевые слова:** психолог, практика, общество, профессия, профессионал, этика, эстетика, психологическая служба, коррекция.

**Annotation:** This article discusses the characteristics of practicing psychologists as individuals and their role in society as professionals. The ethical and professional principles of practical psychologists are also highlighted.

**Keywords:** psychologist, practice, society, profession, professional, ethics, aesthetics, psychological services, correction.

XX asr bo'sag'asida psixologiya fani va uning ilg'or vakillari ozlarining navbatdagi jahonshumul ilmiy maqsadlari - insonga, ayni paytda, jamiyatga psixologik xizmat ko'rsatish tizimining muqarrarligini nazariy-ilmiy jihatdan asoslab berishga muvaffaq

boldilar. Shaxs va uning faoliyatini har tomonlama rivojlantirish muammosiga psixologiyaning amaliy tatbiqiy yo`nalishlari asosida yondashish zarurligi haqida ko`pgina olimlar o`z fikr mulohazalarini bildirganlar va bildirib kelmoqdalar. Psixologik hizmatning asosiy mazmuni - sog'lom shaxsning o'sishini ta'minlash shaxs rivojlanishidagi turli qiyinchiliklarni korreksiya qilish va kasb tanlash muammosidir. Birinchi bo'lib 1975 yilda Estoniyada psixologik xizmat atshkil etildi. Uning rahbari X.I.Liymets, Yu.L.Serd bo'lib tarbiyasi qiyin o'smirlar uchun ish olib bordilar. Rossiyada I.V.Dubrovina psixologik xizmatning rivojalanishiga juda katta hissa qo'shgan. Har bir davlatning ijtimoiy taraqqiyoti o'sha davlat hududida yashovchi fuqarolarning ijodiy o'sishi va axloqiy potensialiga bog'liq bo'ladi. Jumladan, bu kasb AQShda o'tgan XX asrning 1960 yillarida paydo bo'lib hozirgi zamон psixologiyasidagi asosiy tarmoq hisoblanadi. AQShda 1980 yillarda maktab psixologlarining Milliy assotsiyasi tuzilgan edi. AQShda maktab psixologining markaziy vazifalarida biri o'quvchilarning aqliy rivojlnish sifatini test savollari orqali baholash hisoblanadi. Psixolog B.L.Vulfson Fransianing hozirgi vaqtdagi pedagogik muammolarini taxlil qilib yaqin vaqtlargacha test uslubi AQSH va Agiliyadagidek keng tarqalmagan degan fikrni aytadi . Fransiya maktablarida bolaning aqliy faoliyatları va qobiliyatlarini testlar orqali aniqlash o'tgan asrning 70-yillari boshidan boshlaganligi malum. Lekin hozirgi vaqtda odamning faqatgina aqliy faoliyati bilan emas balki shaxs bo'lib shakllanishi jarayonida uni har tamonlama baholashga to'g'ri keladi. O'zbekistonda psixologik xizmatning tadbiq etilishi. 1989-yilda O'zbekistonda amaliyotchi psixologlarning yetishmasligi sabab Nizomiy nomli TDPUda amaliyotchi psixologloglar tayyorlash fakulteti ochildi. O'zbekistonda psixologik xizmatning rivojlanishida E.G'oziyev, M.G.Davletshen, G.B.Shoumarov, V. M. Karimova, Sh. R.Baratov, E.H.Sattarov, F.S.Ismagilova, Z.T.Nizamova, H.S.Safoyev, F.L.Xaydarov, B.R.Qodirov, S.X.Jalilova, va boshqalar fan rivojida o'z hissasini qo'shgan va hozirga qadar o'z izlanishlarini davom ettirmoqda. Bugungi kunda ko'pchilik umumiyl o'rta ta'lim maktablari o'zining psixologlariga ega. Biroq shunga qaramay direktor va o'qituvchilar ko'pincha psixologning qo'lidan nima kelishi mumkinligini yaxshi tasavvur etolmaydilar. Ularga psixolog hamma muammolarini bir zumda hal qilib beradigandek tuyuladi. Ammo psixologning maktabda ish boshlaganidan keyin maktabda

tashqi jihatdan hech narsa o'zgarmaganini ko'rishgach, ularda «Maktab psixologining o'zi nima keragi bor?» degan tipdagi savollar tug'iladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, maktabdagi amaliy ish uchun psixolog o'rgangan nazariy bilimlar yetmay qoladi. Maktabga kelib qolgach, psixologlar ko'pincha amaliyotning ular oldiga qo'ygan muammolaridan dovdirab qoladilar. Shunday ahvolga tushib qolmasligi uchun psixolog avvalo maktabga nima maqsadda borayotganligini aniqlashtirib olishi kerak.

Psixologik xizmatning umumiyligi maqsadlaridan kelib chiqib, psixolog umumiyligi o'rta ta'limga muktabida quyidagi vazifalarni bajarishi talab etiladi:

1. Bolalarning har-bir yosh bosqichida shaxs sifatida va intellektual jihatdan to'laqonli rivojlanishini ta'minlash, ularda o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish:

2. Har bir bolaga individual yondashuvni va uning psixologik-pedagogik o'rganilishini taminlash:

3. Bolaning intellektual jihatdan va shaxs sifatida rivojlanish jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan chetga chiqishlarni profilaktika qilish.

Shunday qilib, psixolog maktabga avvalo bolalar uchun keladi. Lekin bu psixolog o'qituvchilar bilan ishlamaydi, degani emas. Psixolog maktabda yengib o'tishi kerak bo'lgan birinchi to'siq - bu maktabning pedagogik jamoasiga qo'shila olishdir. Bordi-yu psixolog bu murakkab organizmga qo'shilib keta olmasa, o'z ishida muvaffaqiyatga erishishi dargumondir. Dastlabki qadamlarni qo'yishda ota-onalar bilan aloqa o'rnatish juda muhim. Dastlabki aloqa ixtiyoriy xarakterda bo'lishi va o'zi murojaat qilgan ota-onalar bilan amalga oshirilishi kerak. Buning uchun psixolog alohida kun va soatlarni ajratishi lozim. Demak, umumiyligi o'rta ta'limga muktabida ishni boshlashdan avval psixolog:

1. O'zining pedagoglar jamoasi va maktab ma'muriyati bilan bo'lgan munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishi.

2. O'z ishining asosiy maqsadi - bu bolaning optimal rivojlanishini ta'minlash ekanini doim yodda saqlashi.

3. O'zining faoliyatida profilaktik ishga u bilan bevosita bog'liq bo'lgan diagnostik va rivojlantiruvchi ishga alohida e'tibor bilan qarashi (axir kasalni tuzatgandan uning oldini olgan ma'qulroq- da) lozim bo'ladi. O'qituvchi psixologning mijozи va yaqin

hamkor sifatida O'qituvchilar ham alohida e'tibor talab qiladigan ob'ektdir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, odatda o'qituvchilar psixolog bilan hamkorlik qilishga tayyor bo'ladilar. Hamma gap psixolog o'zini qanday tutishiga borib taqaladi. Bunda psixologning o'qituvchilarga nisbatan egallaydigan pozitsiyasi juda muhim rol o'yndaydi.

Psixolog pozitsiyasining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

- a) pedagog bilan bo'lgan munosabatga ust anovka;
- b) pedagoglarni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishga ustanovka.
- v) sub'ekt - sub'ekt munosabatlaridan iborat tenglik va hamkorlik xarakteridagi munosabatlarga ustanovka

Mana shunday pozitsiya pedagoglar bilan bo'lgan konstruktiv hamkorlikni ta'minlay oladi. Dastlabki kezlarda psixolog o'qituvchilarga o'z yordamini haddan tashqari faollik bilan tiqishtirmasligi zarur. Kamtarona ravishda, agar zarur bo'lsa, yordam berishga tayyorligini ma'lum qilsa, shuning o'zi kifoya. Kimdir darrov hamkorlikka shoshiladi kimdir birozdan so'ng kimgadir umuman psixolog yordami kerak bo'lmaydi. O'qituvchilar bilan ishlashda bolada ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarga asosan o'qituvchi sababchi bo'layotganini ta'kidlab turishi kerak. Psixologning ishi «soyada» qolishi kerak. SHunda u pedagoglar orasida tan olinadi. O'qituvchilar bilan olib boriladigan individual ishlardan tashqari ular bilan seminarlar shaklida psixologik targ'ibot ishlarini olib borish maqsadga muvoviqidir. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad kimgadir o'z bilimlarini ko'z-ko'z qilish emas, balki pedagoglarning psixologik madaniyatini oshirishdir. Ushbu mashg'ulotlarni shunday tashkillashtirish kerakki, o'qituvchilar passiv tinglovchi bo'lib qolmasinlar. Buning uchun har bir psixologik ma'lumotga ularni o'z tajribalaridan misollar keltirishga undash kerak. Oxirida esa biror bir hazil aralash testni bajarish hammaga yaxshi kayfiyat baxsh etadi. Har qaysi maktab psixologi oldidagi savol shuki «O'zim yordamimni taklif qilaymi yoki o'qituvchilar murojaat qilishini kutaymi?» Mayli bu savolga har kim o'z vaziyatidan kelib chiqib javob bera qolsin. Lekin psixolog bir narsani unutmasinki, o'qituvchilarning unga murojat qilishi ularning pedagogik staji va tajribasiga bog'liq emas. Bu ko'proq ularning shaxsiy fazilatlariga: muloqatga kirishuvchanlik darajasi, xavotirlanuvchanlik, qiziquvchanligi yangilikka ochiqligi va boshqalarga bog'liq. Psixolog o`quvchilar xarakterida mavjud

bo'lgan yutuqlarni rivojlantirish va kamchiliklarni tuzatish, o`z xatti-harakatlarini kuzatish, tahlil qilish, baholash, ozining kayfiyat va xulq atvorini boshqarish, konikma va malakalarni rivojlantirish haqida tavsiyalar beradi. Umum orta talim maktablarida ish olib borayotgan amaliyotchi psixologlar oz faoliyati davomida talim muassasining ijtimoiy muhitini muvofiqlashtirishni taminlaydi, va ijtimoiy moslashmaslik ularning zoriqishlarini yuz berishini oldini olish uchun psixologik xizmatning o'rni beqiyos. Psixologik xizmat faoliyati o'quvchilar aqliy faoliyat taraqqiyoti va shaxsiy xususiyatlarini diagnostika qilishga, ta'lim-tarbiyasidagi buzilishlarning psixologik sabablarni aniqlashgagina qaratilmasdan, balki bunday buzilishlarni yoqotish va oldini olishga qaratiladi. Bunday psixologning aniqlagan va toplagan malumotlari o'quvchilarni korreksiya qilishda faol ishtiroy etish zarurligi kelib chiqadi.

***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. Boymurodov, N. (2008). Amaliy psixologiya. Yangi asr avlod.
2. Davletshin, M. (2002). Umumiyy psixologiya. TDPU.
3. Suyarov, A. (2017). The present condition of tourism in Samarkand, the results of research survey from tourists in region. SCOPE Acad. HOUSE BM Publ. 103, 41-46.
4. Samarova Shoxista Rabidjanovna, Rakhmonova Muqaddas Qahramanovna, Mirzarahimova Gulnora, Ikromovna, Maratov Temur Gayrat ugli, Kamilov Bobir Sultanovich. (2020). Psychological aspects of developing creative personality and the concept of reduction of creativity to intellect. JCR. 7(17): 498-505. doi: 10.31838/jcr.07.17.69
5. Jabbor Usarov. (2019, June). Using Teaching Methods for Development Pupil Competencies. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 15(1), 272274.
6. Jabbor Eshbekovich Usarov. (2017). Formation Competence at Pupils as the Factor of Increase of Education's Efficiency. Theoretical & Applied Science, 53(9), 79-82.